



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 5 Issue 08 | pp. 68-77 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

TA'LIM MUASSASALARIDA XARAJATLAR SMETASI IJROSINING SINTETIK HISOBI VA HISOBOTINI TAKOMILLASHTIRISH



Isoqulov Fazliddin Shamsiddin o'g'li,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
mustaqil izlanuvchisi,
e-mail: FIsoqulov@TK.mf.uz

Annotatsiya. Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalarida xarajatlar smetasi ijrosining sintetik hisobi va hisobotini takomillashtirish bo'yicha olib borilgan izlanishlar keltirilgan. Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalarida xarajatlar smetasi ijrosini tuzish, tasdiqlash hamda dastlabki hisobini yuritilishining nazariy tartibini amaliy jihatdan tahlil qilish orqali mavjud muammolarni aniqlash bo'yicha izlanishlar olib borilgan. Ta'lim muassasalarida xarajatlar smetasining ijrosini nazorat qilishda sintetik hisob yuritishning o'rni va ahamiyati yoritilgan. Sintetik hisob - buxgalteriya hisobining umumlashtirilgan ko'rinishi bo'lib, barcha xo'jalik jarayonlari umumiy hisobvaraqa (schyot)larda aks ettiriladi. Amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar asosida dastlabki hisob yuritishning tartibi, buxgalteriya hujjatlari va ichki moliyaviy nazorat mexanizmlari bilan bog'liqligi ham ko'rib chiqilgan. Oliy ta'lim muassasalarida xarajatlar smetasi ijrosining sintetik hisobi va hisobotini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy taklif hamda tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim muassasalari, moliya yili, xarajatlar, vaqtinchalik xarajatlar smetasi, xarajatlar smetasi, xarajatlar moddasi, daromadlar, daromadlar va xarajatlar smetasi, jamlanma xarajatlar smetasi, jamlanma daromadlar va xarajatlar smetasi, UzASBO dasturiy majmuasi, dastlabki hisob, sintetik hisob, moliyaviy intizom, buxgalteriya hujjatlari, smetaviy rejalashtirish, budget mablag'lari, ichki nazorat, moliyaviy hisobot.

Аннотация. В данной статье представлено исследование по совершенствованию синтетического учета и отчетности об исполнении смет расходов в высших учебных заведениях. В данной статье проведено исследование по выявлению существующих проблем посредством практического анализа теоретического порядка составления, утверждения и ведения предварительного учета исполнения смет расходов в высших учебных заведениях. Освещены роль и значение синтетического учета в контроле исполнения смет расходов в образовательных учреждениях. Синтетический учет представляет собой обобщенную форму бухгалтерского учета, в которой все хозяйственные процессы отражаются на счетах бухгалтерского учета. Также рассмотрен порядок ведения предварительного учета, основанный на действующих нормативно-правовых актах, его связь с бухгалтерскими документами и механизмами внутреннего финансового контроля. Даны научно-практические предложения и рекомендации по совершенствованию синтетического учета и отчетности об исполнении смет расходов в высших учебных заведениях.

Ключевые слова: высшие учебные заведения, финансовый год, расходы, предварительная смета расходов, смета расходов, статья расходов, доход, смета доходов и расходов, сводная смета расходов, сводная смета доходов и расходов, программный комплекс «УзАСБО», первоначальный расчет, синтетический расчет, финансовая дисциплина, учетные документы, сметное планирование, бюджетные средства, внутренний контроль, финансовая отчетность.

Abstract. This article presents research on improving synthetic accounting and reporting on the execution of cost estimates in higher educational institutions. This article has conducted research on identifying existing problems through a practical analysis of the theoretical procedure for drawing up, approving and conducting preliminary accounting for the execution of cost estimates in higher educational institutions. The role and importance of synthetic accounting in controlling the execution of cost estimates in educational institutions are highlighted. Synthetic accounting is a generalized form of accounting, in which all economic processes are reflected in general accounts (accounts). The procedure for conducting preliminary accounting based on current regulatory legal acts, its connection with accounting documents and internal financial control mechanisms, is also considered. Scientific and practical proposals and recommendations are given on improving synthetic accounting and reporting on the execution of cost estimates in higher educational institutions.

Keywords: higher education institutions, financial year, expenses, provisional expense estimate, expense estimate, expense item, income, income and expense estimate, consolidated expense estimate, consolidated income and expense estimate, UzASBO software complex, initial calculation, synthetic calculation, financial discipline, accounting documents, estimated planning, budget funds, internal control, financial reporting.

Kirish

Ta'lim muassasalari budjet mablag'lari asosida faoliyat yuritadi, ularning moliyaviy intizomi davlat nazorati ostida bo'ladi. Xarajatlar smetasi ijrosi to'g'ri yuritilmasa, mablag'lar noto'g'ri sarflanishi, hisobotlarda xatoliklar yoki oshkoralik buzilishi xavfi tug'iladi. Moliyaviy boshqaruvda sintetik hisob tizimini takomillashtirish orqali xarajatlarning aniq nazoratini ta'minlash mumkin. Ta'lim muassasalari faoliyatining samaradorligini ta'minlashda moliyaviy mablag'lardan oqilona va maqsadli foydalanish muhim ahamiyatga ega. Xususan, budjetdan ajratilgan mablag'larning maqsadli ishlatilishini ta'minlashda xarajatlar smetasining to'g'ri shakllantirilishi va uning ijrosi ustidan tizimli nazorat o'rnatilishi zarur. Bu jarayonda dastlabki va sintetik hisob yuritish mexanizmlari ta'lim muassasasining moliyaviy intizomini mustahkamlash, ortiqcha yoki maqsadsiz xarajatlarning oldini olish, shuningdek, aniq va asosli moliyaviy hisobotlarni tayyorlashda asosiy vositalardan biri hisoblanadi.

Budjet tashkilotlarida har yili belgilangan tartibda budjet va budjetdan tashqari mablag'lari bo'yicha xarajatlar smetasi va shtatlar jadvali tuziladi va tasdiqlanadi. Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi xarajatlar smetasi ijrosini ta'minlab beradi. Bunda xarajatlarni iqtisodiy tasnifi asosida smeta doirasida xarajatlar moliyalashtiriladi va amalga oshiriladi. Shuning uchun budjet tashkilotlari buxgalteriya hisobini yuritishda smetalar ijrosi nazorat qilinadi. Shu o'rinda bir nechta asosiy tushunchalar haqida to'xtalib o'tsak:

vaqtinchalik xarajatlar smetasi — budget tashkilotining yoki budget mablag'lari oluvchining xarajatlar smetasi tasdiqlanguniga va ro'yxatdan o'tkazilguniga qadar amal qiladigan hujjat bo'lib, unda qonunchilikdagi o'zgartirishlar hisobga olingan holda uning uchun nazarda tutilgan budgetdan ajratiladigan mablag'lar har oy uchun aks ettiriladi;

daromadlar va xarajatlar smetasi — budget tashkilotlari budgetdan tashqari jamg'armalarining tegishli yil choragi yoki moliya yili uchun kutilayotgan tushumlari va xarajatlari aks ettiriladigan hujjat;

jamlanma xarajatlar smetasi — budget mablag'larini taqsimlovchi tomonidan o'z tasarrufidagi budget tashkilotlarining va budget mablag'lari oluvchilarning xarajatlar smetalari asosida tuziladigan xarajatlar smetasi;

xarajatlar moddasi — budget tizimi budgetlari xarajatlarining iqtisodiy yo'nalishi va to'lovlarning aniq turlari bo'yicha belgilovchi budget tasnifining bir qismi;

Sintetik hisob — buxgalteriya hisobining umumlashtirilgan ko'rinishi bo'lib, barcha xo'jalik jarayonlari umumiy hisobvaraq (schyot)larda aks ettiriladi.

Ushbu maqolada aynan shu masalaga e'tibor qaratilib, ta'lim tashkilotlarida xarajatlar smetasi ijrosining sintetik hisobi va hisobotini yuritish tartibi, me'yoriy asoslari, amaliy muammolari va takomillashtirish yo'nalishlari tahlil qilinadi.

Ta'lim tizimidagi budget muassasalari buxgalteriya hisobida tashkilot tasarrufidagi mablag'lar va ularning manbalarini harakatiga oid sodir bo'ladigan o'zgarishlar aks ettiriladi hamda tashkilotning daromadlar va xarajatlar smetalari ijrosi aniqlanadi. Buxgalteriya hisobining boshqa obyektlari kabi budget tashkilotlarida ham buxgalteriya hisobining asosiy talablaridan biri sodir etilgan har bir xo'jalik muomalalari bo'yicha dastlabki hujjatlarni o'z vaqtida rasmiylashtirish hisoblanadi.

Budget tashkilotlarida buxgalteriya hisobining o'ziga xos obyektlari bo'lib nomoliyaviy aktivlar, moliyaviy aktivlar, debitorlik va kreditorlik qarzlar, moliyaviy natijalar hamda ularning harakati bilan bog'liq xo'jalik muomalalari hisoblanadi.

Xarajatlar hajmining guruhlar va paragraflari bo'yicha o'zgartirish O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining vakolatida turadi. Ajratilgan mablag'larni tegishli paragraflar va guruhlar bo'yicha tayinlanishiga qarab foydalanish uchun javobgarlik budget tashkilotlarining rahbarlari va bosh buxgalterlari zimmasiga yuklatilgan.

Budget tashkilotlari xarajatlarni qoplash uchun budgetdan ajratiladigan mablag'lardan tashqari boshqa daromad manbalari mavjud bo'lganda, mazkur ko'rsatilgan mablag'lar bo'yicha ham daromadlar va xarajatlar smetalari tuzadi.

Adabiyotlar sharhi

Ta'lim muassasalarida xarajatlar smetasi ijrosining nazoratini ta'minlash va moliyaviy intizomni kuchaytirishda sintetik hisob va hisobotni takomillashtirish tizimi muhim vosita hisoblanadi. Mazkur yo'nalishda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar va normativ-huquqiy manbalar buxgalteriya amaliyotining mazmuni va uslubiy asoslarini yoritib beradi.

Xarajatlar smetasi ijrosi hisobi davlat moliya boshqaruvi tizimining eng muhim elementlaridan biri hisoblanadi. Xalqaro miqyosda bu yo'nalishda keng qo'llaniladigan yondashuvlardan biri bu International Public Sector Accounting Standards (IPSAS) hisoblanadi. IPSAS davlat sektori uchun yagona standartlarni ishlab chiqib, xarajatlarning

tasnifi, ularning moliyaviy hisobotlarda aks ettirilishi va shaffofligini ta'minlashni ko'zda tutadi. Masalan, Jones va Pendlebury o'z tadqiqotida davlat sektori hisobi samaradorligini oshirish uchun smeta va moliyaviy natijalar hisobotining uyg'unligi muhimligini ta'kidlaydi.

O'zbekistonda byudjet tashkilotlari, xususan ta'lim muassasalari xarajatlari hisobi "Byudjet tashkilotlarining buxgalteriya hisobi to'g'risidagi Nizom" (Vazirlar Mahkamasining qarorlari bilan tasdiqlangan) asosida yuritiladi. Bu nizomda smeta asosida mablag'larning sarflanishi va ularning sintetik hisobda aks ettirilishi bo'yicha yagona tartiblar belgilangan.

Qodirov (2020) o'z tadqiqotida ta'lim muassasalarida smeta ijrosi hisobi ko'pincha formal xarakter kasb etishini, natijada xarajatlarning iqtisodiy samaradorligi to'liq baholanmasligini qayd etgan.

Shuningdek, Karimov va Ismoilova (2022) ta'kidlaganidek, ta'lim tashkilotlarida smeta ijrosining sintetik hisobi ko'pincha qog'oz shaklda va kechikkan holda amalga oshiriladi, bu esa o'z vaqtida nazorat qilish imkoniyatlarini cheklaydi.

Tadqiqot metodologiyasi

Maqolada turli tahlil usullari, jumladan taqqoslash, tahlil va sintez, induksiya va deduktsiya, guruhlash kabi usullar keng qo'llanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi

"UzASBO" dasturiy majmuasiga (bundan buyon matnda dasturiy majmua deb yuritiladi) ulangan budjet tashkilotlari, budjet mablag'lari oluvchilar, budjet mablag'larini taqsimlovchilar va markazlashtirilgan moliya-buxgalteriya xizmatlarining xarajatlar smetasi, daromadlar va xarajatlar smetasi, vaqtinchalik xarajatlar smetalari, shtat jadvallari, jamlanma xarajatlar smetasi, jamlanma daromadlar va xarajatlar smetasi, jamlanma vaqtinchalik xarajatlar smetalari va jamlanma shtat jadvallari dasturiy majmuada ushbu tashkilotlar tomonidan shakllantiriladi va tuziladi.

Dasturiy majmuada shakllantirilgan va tuzilgan xarajatlar smetasi, daromadlar va xarajatlar smetasi, vaqtinchalik xarajatlar smetalari, shtat jadvallari, jamlanma xarajatlar smetasi, jamlanma daromadlar va xarajatlar smetasi, jamlanma vaqtinchalik xarajatlar smetalari va jamlanma shtat jadvallari mazkur Nizom talablari asosida tasdiqlanib, har biriga xos "QR" kodlar qo'yish orqali dasturiy majmuada ro'yxatga olinadi.

O'zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 112-moddasi oltinchi qismida ko'rsatilgan quyidagi mablag'larga xarajatlar smetalarini tuzish talab qilinmaydi:

a) budjet tashkilotlari va budjet mablag'lari oluvchilarning xarajatlar smetalarini ro'yxatdan o'tkazish hamda ijro etish jarayonida bo'shaydigan;

b) tovar-moddiy qimmatliklarning normativdan ortiq zaxiralari bo'yicha hisobga olingan;

v) advokatlar tomonidan ko'rsatilgan yuridik yordam uchun davlat hisobidan to'lanishi nazarda tutiladigan;

g) qo'shilgan qiymat solig'i summasini soliq to'lovchilarga qaytarish uchun nazarda tutiladigan;

d) davlat organlari yoki ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof harakatlari (harakatsizligi) natijasida jismoniy yoki yuridik shaxslarga yetkazilgan zararning o'rnini qoplash uchun nazarda tutiladigan;

e) budjet tashkilotlarida ishlovchi ayollarga homiladorlik va tug'ish nafaqasini to'lash uchun nazarda tutiladigan, budjet tashkilotlarining xarajatlar smetalariga qonunchilikda belgilangan tartibda o'zgartirishlar kiritilgan hollar bundan mustasno;

j) bir yo'la beriladigan davlat pul mukofotlari va mukofotlarini to'lash uchun nazarda tutiladigan;

z) Chernobil AES halokati oqibatlarini tugatish ishtirokchilariga kompensatsiyalar to'lash uchun nazarda tutiladigan;

i) transportda imtiyozli yurishni qoplash uchun nazarda tutiladigan;

k) davlat qarzi bo'yicha xizmat ko'rsatish, O'zbekiston Respublikasi ishtirokchi bo'lgan xalqaro tashkilotlarga a'zolik badallarini to'lash va ularni moliyalashtirishda ishtirok etish uchun mo'ljallangan;

l) davlat ehtiyojlari uchun qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirayotgan qishloq xo'jaligi korxonalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash uchun nazarda tutiladigan;

m) saylov va referendumlar o'tkazish uchun nazarda tutiladigan;

n) budjetlararo transfertlar ajratish uchun nazarda tutiladigan;

o) tijorat banklari va boshqa moliya institutlarining ustav kapitalini shakllantirish va ko'paytirish uchun nazarda tutiladigan;

p) rezident-yuridik shaxslarga budjet ssudalari ajratish va O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining kredit liniyalarini ochish uchun nazarda tutiladigan;

r) soliq va budjet siyosatining asosiy yo'nalishlarida nazarda tutilgan tadbirlar hamda moliya yili mobaynida amalga oshirilishi nazarda tutilgan va Davlat budjeti xarajatlarini ko'paytirishni talab qiladigan boshqa tadbirlar uchun mo'ljallangan;

s) davlat maqsadli jamg'armalariga o'tkazib beriladigan;

t) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining, Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika budjetining, viloyatlar viloyat budjetlarining va Toshkent shahri shahar budjetining tumanlar va shaharlar budjetlarining zaxira jamg'armalarini shakllantirish uchun budjetdan ajratiladigan mablag'lar.

Bunda, ushbu bandda ko'rsatilgan mablag'lar O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasining Iqtisodiyot va moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmalari, tumanlar va shaharlar hokimliklarining iqtisodiyot va moliya bo'limlari (bundan buyon matnda iqtisodiyot va moliya organlari deb yuritiladi)ning shaxsiy g'azna hisovaraqlarida aks ettiriladi (mazkur bandning "m", "s" va "t" kichik bandlarida keltirilgan mablag'lar bundan mustasno).

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2021-2024-yillarda daromad va xarajatlar smetasi ijrosining o'zgarishini quyidagi jadvallar asosida tahlil qilingan hamda natijalar haqida muhokama yuritilgan.

Oliy ta'lim muassasasining xarajatlari budjet hamda to'lov-kontrakt to'lovlaridan tushgan mablag'lar orqali amalga oshirilganligi sababli shtatlar jadvali ham ikkita, ya'ni budjet va to'lov-shartnoma mablag'lari bo'yicha tuziladi.

Ro'yxatdan o'tkaziladigan to'lov-shartnoma mablag'lari bo'yicha smeta bilan birga shtatlar jadvali ham ro'yxatdan o'tkazish uchun taqdim qilinadi.

Xarajatlar smetasi budjet tashkilotlari va budjet mablag'lari oluvchilari tomonidan quyidagi jadval shaklida tuziladi:

1-jadval

____yil uchun (ro'yxatdan o'tkazuvchi tashkilotning nomi) ____ro'yxat dan o'tkazildi ____da ____-son ro'yxatdan o'tkazish kartochkasi 20____yil "____" ____ (imzo) ____ (imzo) M.O'.	<table style="width: 100%;"> <tr> <td style="width: 50%; text-align: center;"> (summa yozuv va raqam bilan) Jumladan ish haqi </td> <td style="width: 50%; text-align: center;"> ming so'm miqdorida tasdiqlangan </td> </tr> <tr> <td style="text-align: center;"> (summa yozuv va raqam bilan) Budjet tashkiloti (budjet mablag'lari oluvchi)ning rahbari </td> <td style="text-align: center;"> ing so'm (summa yozuv va raqam bilan) </td> </tr> <tr> <td style="text-align: center;"> ____ (imzo) 20____yil "____" ____ </td> <td style="text-align: center;"> ____ (F.I.O.) M.O'. </td> </tr> </table>	(summa yozuv va raqam bilan) Jumladan ish haqi	ming so'm miqdorida tasdiqlangan	(summa yozuv va raqam bilan) Budjet tashkiloti (budjet mablag'lari oluvchi)ning rahbari	ing so'm (summa yozuv va raqam bilan)	____ (imzo) 20____yil "____" ____	____ (F.I.O.) M.O'.
(summa yozuv va raqam bilan) Jumladan ish haqi	ming so'm miqdorida tasdiqlangan						
(summa yozuv va raqam bilan) Budjet tashkiloti (budjet mablag'lari oluvchi)ning rahbari	ing so'm (summa yozuv va raqam bilan)						
____ (imzo) 20____yil "____" ____	____ (F.I.O.) M.O'.						

____ yil uchun xarajatlar SMETASI

Tashkilotning to'liq nomi: _____

To'liq manzil: _____

Budjet darajasi: _____

Bo'lim: _____

Kichik bo'lim: _____

Bob: _____

O'lchov birligi: _____

Oliy ta'lim tizimida budjet va to'lov-shartnoma asosida tushgan mablag'lari yuzasidan smetalar ijrosi har bir mablag'larning turlari bo'yicha daromadlar va xarajatlarning reja ko'rsatkichlariga nisbatan bajarilishiga e'tibor qaratiladi.

2-jadval

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi bo'yicha daromad va xarajatlar smetasi ijrosining 2021-2024-yillardagi o'zgarishi tahlili, mln. so'mda

Xarajat guruhlari	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2024-yil	2021-yilga nisbatan 2024-yildagi o'sish, %da
-------------------	----------	----------	----------	----------	--

I-guruh					
Ish haqi	19 255,5	113 277,1	144 960,2	169 305,2	879,3
Stipendiya	4 578,1	19 979,1	22 728,1	26 701,1	583,2
II-guruh (YaIT - 12%)	4 223,4	28 217,1	17 046,6	19 746,9	467,6
III-guruh					
IV-guruh	1 803	26 836,6	46 518,5	81 399,7	4 514,7
Jami xarajatlar	29 860	188 309,9	231 253,4	297 152,9	995,2

Manba: Muallif ishlanmasi

Oliy ta'lim muassasalarida g'aznachilikda budjet tashkilotlarining budjet va to'lovshartnoma asosida tushgan mablag'lari smetalari kassa usuli bo'yicha, xususan tashkilotning shaxsiy g'azna hisobvaraqlariga kelib tushgan pul mablag'lari daromad va hisobvaraqlaridan pul mablag'larining o'tkazilishi esa xarajat sifatida hisobga olinadi. Ta'lim muassasalari yilning har choragi uchun, chorakdan keyingi oyning birinchi o'n kunligida, o'zlari bo'ysunadigan vazirliklar va idoralarga to'lovshartnoma asosida tushgan mablag'lar bo'yicha daromadlar va xarajatlar smetasining bajarilishi haqida belgilangan tartibda hisobot taqdim etadilar.

3-jadval

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi bo'yicha 2020-2024-yillarda xarajatlar smetasi IV guruhining dinamikasi tahlili

Xarajat guruhlari	2020-yil		2021-yil		2022-yil		2023-yil		2024-yil	
	Ming so'm	%da	Ming so'm	%da	Ming so'm	%da	Ming so'm	%da	Ming so'm	%da
IV guruh	897 778 032,1	100%	786 800 703,7	100%	1 508 291 973,5	100%	1 883 539 405,0	100%	3 820 996 579,0	100%
Ijtimoiy nafaqalar	0,0	0%	2 630 294,7	0%	7 860 026,4	1%	50 791 034,2	3%	100 576 174,4	3%
Xizmat safarlari xarajatlari	12 686 014,5	1%	5 022 939,2	1%	13 788 164,1	1%	45 514 464,2	2%	69 538 387,0	2%
Kommunal to'lovlar xarajatlari	55 423 438,4	6%	60 617 437,4	8%	80 267 264,6	5%	105 466 580,1	6%	157 342 630,5	4%
Joriy ta'mirlash xarajatlari	59 246 288,2	7%	86 064 028,4	11%	129 204 889,0	9%	75 371 100,4	4%	107 488 988,8	3%
Ijara, ekspluatatsiya va boshqa xizmatlarni to'lash xarajatlari	653 561,5	0%	163 249,0	0%	393 165,0	0%	1 693 292,4	0%	4 988 310,8	0%
Joriy saqlash uchun asbobuskunalar, jihozlar sotib olish xarajatlari	48 572 898,3	5%	53 602 671,8	7%	100 135 447,9	7%	140 879 270,5	7%	201 655 856,4	5%

O'qitish va malaka oshirish xarajatlari	825 188,7	0%	313 004,1	0%	6 266 461,9	0%	7 173 582,4	0%	13 632 234,5	0%
Telefon xizmatlari va internet xarajatlari	4 126 913,0	0%	5 848 950,5	1%	8 505 010,6	1%	9 998 684,6	1%	18 636 269,5	0%
Kapital ta'mirlash xarajatlari	42 474 872,3	5%	92 912 941,0	12%	190 496 141,9	13%	463 165 213,7	25%	1 462 374 812,1	38%
Mebel va ofis jihozlarini sotib olish xarajatlari	25 155 126,0	3%	29 879 999,0	4%	135 219 500,2	9%	64 896 161,4	3%	99 917 714,8	3%
Kompyuter texnikasini sotib olish xarajatlari	41 069 205,3	5%	57 125 338,9	7%	89 617 924,5	6%	83 457 852,7	4%	117 647 996,7	3%
Boshqa asosiy vositalarni sotib olish xarajatlari	24 928 942,7	3%	25 669 407,4	3%	64 693 116,8	4%	105 499 360,3	6%	436 335 498,1	11%
Kitob sotib olish xarajatlari	3 290 483,7	0%	3 911 667,0	0%	13 766 767,5	1%	18 123 791,0	1%	22 980 235,4	1%
Boshqa xarajatlar	579 325 099,5	65%	363 038 775,3	46%	668 078 093,1	44%	711 509 017,1	38%	1 007 881 470,0	26%

Manba: Muallif ishlanmasi

2-jadval tahlili vazirlik darajasida IV-guruh xarajatlar smetasi ijrosi 2024-yilda 2020-yilga nisbatan 4,3 barobarga oshganligini guvohi bo'lamiz. 2024-yildagi IV guruh xarajatlari tarkibida salmoqli moddalar kapital qurilish xarajatlari (38%), Boshqa asosiy vositalarni sotib olish xarajatlari (11%), Joriy saqlash uchun asbob-uskunalar, jihozlar sotib olish xarajatlari (5%) hamda boshqa xarajatlar (26%) tashkil etib, ularning dinamikasi beqaror tebranish xususiyatiga ega ekanligini ko'ramiz.

Xulosa va takliflar

Oliy ta'lim muassasalari smeta xarajatlari ijrosining hisobi va auditini nazariy hamda tashkiliy jihatlari tadqiq etish, budjet muassasalari smeta xarajatlarning iqtisodiy mohiyatini chuqur o'rganish, uning tarkibiy qismlari tahlil qilish, bu boradagi xalqaro tajriba o'rganish maqsadga muvofiq. Oliy ta'lim muassasalari xarajatlar smetalaridagi ko'zlangan xarajatlarning katta qismi davlat budjetidan ajratilar ekan, ularning maqsadli sarflanishini ta'minlash, ular to'g'risida axborotlarni shakllantirish muhim masalalardan biri sanaladi. Buning uchun oliy ta'lim muassasalari smetalaridagi mablag'lari hisobini qonunchilik asosida yuritilishini ta'minlash zarurdir.

Hozirgi kunda xarajatlar smetasi ijrosi to'g'risidagi hisobotda keltirilgan ma'lumotlarining ochiqqligini va tashkilot xodimlarning faol ishtiroki orqali birinchi navbatda xolislik va ma'lumotlar shaffofligi ta'minlanadi. Budjet mablag'larni shakllantirish va sarflash yo'nalishlari qay tarzda olib borilayotganligi to'g'risida aniq va tezkor ma'lumotlar olish imkoni yuqori bo'ladi.

Oliy ta'lim muassasalarida xarajatlar smetalarni tuzish va tasdiqlash tartibini takomillashtirish bilan bog'liq izlanishlar natijasida quyidagi taklif va tavsiyalarni keltirib o'tish maqsadga muvofiq:

- Oliy ta'lim muassasalarining shtatlar jadvalini namunaviy shtatlar jadvali asosida shakllantirishini ta'minlash, shuningdek, ta'lim muassasalarida tarifikatsiyalarni tuzish va shakllantirishda xodimlar tarkibi bo'yicha vakantlarga yo'l qo'ymaslik hamda ta'lim va tibbiyot tashkilotlarida kontengentlarning o'zgarishi bilan bog'liq jihatlarni e'tiborga olish;
- xarajatlar smetasining to'rtinchi guruh kommunal xizmat xarajatlarini rejalashtirishda ilova qilinadigan hisob-kitoblarning asoslilikini ta'minlash;
- oliy ta'lim muassasalarining xarajatlar smetalarni ro'yxatdan o'tkazishning elektron tizimini yanada kengaytirish orqali smetalarni tuzish jarayonini soddalashtirish, smetalarga o'zgartirishlarni imkon qadar oldini olish;
- xarajatlar smetalarning ijrosi hisobini tashkil etish va yuritish, smetalar ijrosiga oid moliyaviy hisobotlar tahlilini amalga oshirish hamda nazoratini takomillashtirish bo'yicha uslubiy asoslarni yaratishga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. "Ta'lim sohasidagi islohotlarni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida". PQ-54. 2024-yil 2-fevral. <https://lex.uz/pdfs/6788002>
2. O'zbekiston Respublikasining Budget kodeksi. (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2013 y., 52-I-son; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 01.01.2018 y., 03/18/454/0493-son; 05.01.2018 y., 03/18/456/0512-son, 24.07.2018 y., 03/18/486/1559-son, 27.07.2018 y., 03/18/488/1579-son).
3. "Budget tashkilotlari va budget mablag'lari oluvchilarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallarini tuzish, tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizom (ro'yxat raqami 2634, 15.12.2014 y.)
4. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2018-yil 10-sentabrdagi 125-son O'zbekiston Respublikasi budget hisobining standarti (2-sonli BHS) "Yagona schotlar rejasi"ni tasdiqlash to'g'risida buyrug'i. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2018-yil 20-oktabrda 3078-son bilan ro'yxatga olingan. www.lex.uz.
5. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2016-yil 12-dekabrdagi 91-son O'zbekiston Respublikasi budget hisobining standarti (1-sonli BHS) "Hisob siyosati"ni tasdiqlash to'g'risida buyrug'i. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2016-yil 27-dekabrda 2853-son bilan ro'yxatga olingan. www.lex.uz.
6. Allen, R., & Tommasi, D. (2001). Managing Public Expenditure: A Reference Book for Transition Countries. OECD.
7. Jones, R., & Pendlebury, M. (2004). Public Sector Accounting. Pearson Education.
8. Musgrave, R. A., & Musgrave, P. B. (1989). Public Finance in Theory and Practice. McGraw-Hill.
9. OECD. (2017). Education at a Glance: OECD Indicators 2017. OECD Publishing.
10. Qodirov, S. (2020). Ta'lim muassasalarida smeta ijrosi hisobining amaliy muammolari. Moliyaviy Hisob va Audit Jurnal, 2(3), 45–52.
11. Karimov, A., & Ismoilova, M. (2022). Davlat byudjeti tashkilotlarida sintetik hisobni takomillashtirish muammolari. O'zbekiston Iqtisodiy Tahlil Jurnal, 1(1), 67–74.

12. International Public Sector Accounting Standards Board (IPSASB). (2019). Handbook of International Public Sector Accounting Pronouncements. IFAC.

Copyright: © 2025 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

